



Ibragimov L.Z.,
“Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot instituti
loyiha bosh ilmiy xodimi,
geografiya fanlari doktori, professor

NIKOHDAN AJRALISHGA SABAB BO‘LUVCHI IJTIMOIY- IQTISODIY OMILLAR

Annotatsiya. Ushbu maqolada nikohdan ajralishga sanoatning rivojlanish darajasi, aholining ta’lim darajasi, urbanizatsiya, mehnat migratsiyasi kabi ijtimoiy-iqtisodiy omillarning ta’siri tahlil qilingan hamda ajralishlarni kamaytirish bo’yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Аннотация. В данной статье анализируется влияние таких социально-экономических факторов, как уровень промышленного развития, уровень образования населения, урбанизация, трудовая миграция на разводы, а также разрабатываются предложения и рекомендации по снижению разводов.

Annotation. This article analyzes the influence of socio-economic factors such as the level of industrial development, the level of education of the population, urbanization, labor migration on divorce, and offers and recommendations for reducing divorce are developed.

Tayanch soʻzlar: nikohdan ajralish, sanoatning rivojlanish darajasi, aholining ta’lim darajasi, urbanizatsiya, mehnat migratsiyasi.

Ключевые слова: разводы, уровень промышленного развития, уровень образования населения, урбанизация, трудовая миграция.

Keywords: divorce, level of industrial development, level of education of the population, urbanization, labor migration.

Kirish. Oilaviy ajralishning kelib chiqish sabablari va omillarini aniqlash quyidagi savollarga javob berishni taqozo etadi: oilaviy ajralishning iqtisodiy va demografik qonuniyatlari mavjudmi; oilaviy ajralishlarning jamiyat rivojlanishining ijtimoiy-iqtisodiy omillari bilan bog'liqligi bormi; oilalar hayotining qaysi (farzandsiz yoki farzandli) bosqichida oilaviy ajralish sodir bo'ladi; iqtisodiy omillar oilalarning ajralish darajasiga ta'sir qilishi mumkinmi; kimning tashabbusi bilan ajralish sodir bo'ladi, bozor iqtisodiyoti oilalarning ajralishiga qanday ta'sir qiladi va boshqalar.

Shuning uchun O'zbekistonda oilaviy ajrim muammosi, uning rivojlanish qonuniyatlari bo'yicha chuqur ilmiy tadqiqotlar olib borish va uni mustahkamlash bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish nihoyatda muhim hisoblanadi.

Maqsad va uni asoslash. Nikohdan ajralishning demografik, huquqiy va psixologik jihatlari bo'yicha qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish nikohdan ajralishga ijtimoiy-iqtisodiy omillarning ta'siri yetarlicha ilmiy tadqiq etilmaganini ko'rsatdi. Shundan kelib chiqib, mazkur tadqiqotda sanoat, ta'lim, tashqi mehnat migratsiyasi, urbanizatsiya va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan nikohdan ajralish darajasi o'rtasida bog'liqlik mavjudligi tahlil qilindi.

Shuningdek, sanoat, ta'lim, urbanizatsiya, tashqi mehnat migratsiyasi, oila daromadlari darajasining o'sishi nikohdan ajralishlar darajasini oshiradi. Bizningcha, ijtimoiy-iqtisodiy omillar oilaviy ajralishning prognoz parametrlarini ishlab chiqishda hisobga olinishi kerak.

Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi. Nikohdan ajralishga sanoatning rivojlanish darajasi, aholining ta'lim darajasi, urbanizatsiya, mehnat migratsiyasi kabi ijtimoiy-iqtisodiy omillar ta'sir qiladi. Endi yuqoridagi omillarga batafsil to'xtalib o'tsak.

1. Sanoatning rivojlanish darajasi. MDH mamlakatlari, shu jumladan, mamlakatimiz ilmiy adabiyotlarida sanoatning rivojlanishi bilan nikohdan ajralish darajasi o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashga doir tadqiqotlar amalga oshirilmagan. Shundan kelib chiqib mazkur tadqiqotda statistik ma'lumotlar asosida hududlar miqyosida ushbu munosabatlar ilmiy tahlil etildi (1-jadval).

Sanoatning rivojlanishi iqtisodiyotning mazkur tarmog'ida qancha xodim ish bilan bandligi orqali aniqlanadi. Shundan kelib chiqib, sanoatning rivojlanish koeffitsiyenti sifatida har 1000 kishiga to'g'ri keladigan sanoat va ishlab chiqarish xodimlari soni olindi.

Hududda sanoatning rivojlanishi bilan aholining kasbiy-malakaviy, madaniy va boshqa ko'rsatkichlarida ham o'zgarishlar yuz beradi. Ushbu ko'rsatkichlarning muayyan darajada ortishi oila turiga, turmush o'rtog'iga, ijtimoiy ehtiyojlar doirasining o'zgarishiga, oila daromadi, hayotiy qadriyatlariga ta'sir qiladi. Bularning barchasi er-xotin birgalikda yangi hayotiy qadriyatlarni o'zlashtirishga harakat qilishiga olib keladi, keyin oila rivojlanadi va mustahkamlanadi. Aks holda, agar ayoli uy bekasi, eri esa ishlab chiqarishda band bo'lsa, ularning hayotiy qadriyatlari doirasida qarama-qarshiliklar paydo bo'lib, ba'zida oilalarning ajralishi bilan yakunlanadi. Bu yirik sanoat

***Nikohdan
ajralishning
demografik,
huquqiy va
psixologik jihatlari
bo'yicha qator
tadqiqotlar amalga
oshirilgan. Ilmiy
adabiyotlarni tahlil
qilish nikohdan
ajralishga
ijtimoiy-iqtisodiy
omillarning ta'siri
yetarlicha ilmiy
tadqiq etilmaganini
ko'rsatdi.***

shaharlarida ajralishning nisbatan yuqori, qishloq joylarda nisbatan pastligining izohlaridan biri hisoblanadi.

1-jadval

**Respublika hududlarida sanoatning rivojlanish va nikohdan
ajralish koeffitsiyentlari, %**

Ko'rsatkichlar	Yillar				
	2017	2018	2019	2020	2021
O'zbekiston Respublikasi					
Sanoatning rivojlanish koeffitsiyenti	22,7	25,3	26,9	27,3	27,2
Nikohdan ajralish koeffitsiyenti	1,0	1,0	0,9	0,8	1,1
Qoraqalpog'iston Respublikasi					
Sanoatning rivojlanish koeffitsiyenti	11,9	12,2	13,8	14,0	13,2
Nikohdan ajralish koeffitsiyenti	0,7	0,7	0,7	0,5	0,8
Andijon viloyati					
Sanoatning rivojlanish koeffitsiyenti	19,5	23,3	22,9	23,2	24,4
Nikohdan ajralish koeffitsiyenti	1,1	1,4	1,2	1,0	1,2
Buxoro viloyati					
Sanoatning rivojlanish koeffitsiyenti	17,3	16,7	18,7	19,1	21,0
Nikohdan ajralish koeffitsiyenti	1,0	0,9	0,9	0,8	1,1
Jizzax viloyati					
Sanoatning rivojlanish koeffitsiyenti	13,2	14,5	16,9	18,1	17,6
Nikohdan ajralish koeffitsiyenti	0,9	0,8	0,8	0,8	0,9
Qashqadaryo viloyati					
Sanoatning rivojlanish koeffitsiyenti	15,4	16,5	16,1	10,8	11,5
Nikohdan ajralish koeffitsiyenti	0,6	0,5	0,5	0,6	0,9
Navoiy viloyati					
Sanoatning rivojlanish koeffitsiyenti	78,9	87,2	89,6	86,4	83,0
Nikohdan ajralish koeffitsiyenti	1,2	1,0	1,0	0,9	1,2
Namangan viloyati					
Sanoatning rivojlanish koeffitsiyenti	12,6	16,3	18,4	18,7	18,8
Nikohdan ajralish koeffitsiyenti	0,9	0,9	0,9	0,7	1,1
Samarqand viloyati					
Sanoatning rivojlanish koeffitsiyenti	11,3	12,7	15,1	14,6	14,3
Nikohdan ajralish koeffitsiyenti	1,1	1,0	0,9	0,8	1,0
Surxondaryo viloyati					
Sanoatning rivojlanish koeffitsiyenti	7,4	8,5	9,2	9,8	9,5
Nikohdan ajralish koeffitsiyenti	0,7	0,7	0,7	0,6	0,8
Sirdaryo viloyati					
Sanoatning rivojlanish koeffitsiyenti	18,5	21,4	24,2	25,9	26,2
Nikohdan ajralish koeffitsiyenti	1,4	1,4	1,3	1,3	1,6
Toshkent viloyati					
Sanoatning rivojlanish koeffitsiyenti	47,3	50,6	53,3	56,6	59,1
Nikohdan ajralish koeffitsiyenti	1,3	1,3	1,2	1,0	1,4
Farg'ona viloyati					
Sanoatning rivojlanish koeffitsiyenti	22,3	22,5	22,2	22,5	22,2
Nikohdan ajralish koeffitsiyenti	1,0	0,8	0,9	0,8	1,1
Xorazm viloyati					
Sanoatning rivojlanish koeffitsiyenti	12,1	13,9	15,8	16,6	16,7

Agar ayoli uy bekasi, eri esa ishlab chiqarishda band bo'lsa, ularning hayotiy qadriyatlari doirasida qarama-qarshiliklar paydo bo'lib, ba'zida oilalarning ajralishi bilan yakunlanadi. Bu yirik sanoat shaharlarida ajralishning nisbatan yuqori, qishloq joylarda nisbatan pastligining izohlaridan biri hisoblanadi.

Nikohdan ajralish koeffitsiyenti	0,7	0,6	0,6	0,6	0,8
Toshkent shahri					
Sanoatning rivojlanish koeffitsiyenti	55,5	67,2	72,2	77,3	72,3
Nikohdan ajralish koeffitsiyenti	1,5	1,7	1,8	1,5	2,0

Manba: jadval O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Respublika hududlari tarixan iqtisodiy va sanoatning rivojlanishi jihatidan muayyan tafovutlarga ega. Ayniqsa, sanoatning rivojlanishi shaharlarda kuzatiladi. Bunga Toshkent, Navoiy, Shirin, Olmaliq, Bekobod, Ohangaron, Chirchiq, Xonobod, Nukus, Farg'ona, Angren, Jizzax, Samarqand, Quvasoy, Guliston, Qo'qon shaharlarini kiritish mumkin.

Olib borilgan tahlillar sanoatning rivojlanishi bilan nikohdan ajralish koeffitsiyenti o'rtasida bog'liqlik mavjudligini ko'rsatdi. Jumladan, sanoatning rivojlanish koeffitsiyenti eng yuqori bo'lgan Toshkent shahrida nikohdan ajralish darajasi ham yuqori.

Shuningdek, Navoiy (83,0%) va Toshkent (59,1%) viloyatlarida sanoat rivojlanish koeffitsiyentining qiymati yuqori.

Shunday qilib, sanoatning rivojlanishi bilan nikohdan ajralish darajasi o'rtasida yaqin bog'liqlik bor degan xulosaga kelish mumkin.

2. Aholining ta'lim darajasi. Ta'lim darajasi aholi sifatini tavsiflovchi ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Demograf olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ma'lumot darajasi yuqoriroq bo'lgan kishilar yuqoriroq ehtiyojlar darajasiga ega bo'ladi, bolalar tarbiyasiga nisbatan qattiqroq talablar qo'yadi, shuningdek, oilani rejalashtirish usullari haqida ko'proq xabardor bo'ladi va ko'pincha aynan ta'lim muassasasida o'qish tufayli nikohni kechroq muddatga qoldiradi. Shuningdek, aholining ta'lim darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, ular shunchalik kam farzand ko'rishni xohlaydi hamda ularning oilasida kamroq bolalar tug'iladi. Shu bois oliy ma'lumotli aholining nikoh, oila munosabatlari, migratsiya, turmush tarzi o'rta ma'lumotlilarning demografik maylidan farq qiladi.

Aytish joizki, aholining ta'lim darajasi to'g'risidagi aniq raqamlar aholini ro'yxatga olish ma'lumotlari asosida shakllanadi. O'zbekistonda eng oxirgi aholini ro'yxatga olish jarayoni 1989-yilda o'tkazilgan. So'nggi yillarda aholini ro'yxatga olish jarayoni o'tkazilmagani bois tahlilda O'zbekiston Respublikasi aholisining farovonligi darajasini o'rganish maqsadida statistika organlari tomonidan har chorakda o'tkaziladigan uy xo'jaliklarida tanlama kuzatuvda olingan ma'lumotlardan foydalanildi.

Ilmiy adabiyotlarda aholining ta'lim va nikohdan ajralish darajasi o'rtasidagi bog'liqlik masalasi kam o'rganilgan. Sotsiolog va demograflarning mavjud tadqiqotlari nikoh va ajralish jarayonida ta'limning roli yuqori ekanligini ta'kidlaydi, ammo bu statistikada aniq isbotlanmagan. Shuning uchun aholining ta'lim darajasi (oliy ma'lumotli aholi ulushi) va nikohdan ajralish koeffitsiyentini qiyosiy tahlil qilindi (2-jadval).

*Aytish joizki,
aholining
ta'lim darajasi
to'g'risidagi aniq
raqamlar aholini
ro'yxatga olish
ma'lumotlari
asosida
shakllanadi.
O'zbekistonda
eng oxirgi aholini
ro'yxatga olish
jarayoni 1989-yilda
o'tkazilgan.*

2-jadval

25 yosh va undan katta aholining ta'lim darajasi

Ko'rsatkichlar	Yillar					
	2016	2017	2018	2019	2020	2021
Jami						
savodli	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0
boshlang'ich va quyi	0,1	0,1	0,1	0,1	0,0	0,1
o'rta	37,4	36,0	36,0	30,7	30,3	38,3
o'rta maxsus, kasb-hunar	46,2	47,7	47,6	52,7	53,1	45,2
oliy	16,3	16,2	16,3	16,4	16,5	16,5
Ayollar						
savodli	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0
boshlang'ich va quyi	0,1	0,1	0,1	0,1	0,0	0,1
o'rta	41,3	39,4	39,3	33,8	34,0	42,6
o'rta maxsus, kasb-hunar	46,6	48,0	47,9	52,8	52,8	44,2
oliy	12,0	12,5	12,7	13,3	13,2	13,1
Erkaklar						
savodli	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0
boshlang'ich va quyi	0,1	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
o'rta	33,3	32,5	32,6	27,6	26,6	33,8
o'rta maxsus, kasb-hunar	45,8	47,4	47,3	52,7	53,4	46,2
oliy	20,8	20,0	20,0	19,7	20,0	19,9


Manba: jadval O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Shunisi e'tiborliki, ajralgan oliy ma'lumotli aholi tarkibida erkaklar salmog'i yuqoriroq bo'lib, 55-60 foizni tashkil etadi. Oliy ma'lumotli erkaklarning ajralishiga ko'p hollarda rafiqalarining o'rta maxsus va o'rta ma'lumotli bo'lib, ularning dunyoqarashi, turmush tarzi o'zaro mos kelmagani sabab bo'lgan.

1-rasmdagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, aholining ta'lim darajasi yuqori bo'lgan hududlarda nikohdan ajralish koeffitsiyentining qiymati ham yuqori. Bunga Toshkent shahrini misol tariqasida kiritish mumkin. Shaharda oliy ma'lumotli aholi ulushi 41 foizni tashkil etadi, nikohdan ajralish koeffitsiyenti esa 2,0 promillega teng.

Boshqa viloyatlardan Toshkent shahri va Toshkent viloyatiga doimiy yashash uchun ko'p aholi ko'chib kelmoqda. Birgina 2022 yilni o'zida Toshkent shahriga 90,0 ming, Toshkent viloyatiga esa 27,3 ming nafar aholi ko'chib kelgan.

Qishloqdan kelgan aholining shahar xulq-atvor me'yorlariga bosqichma-bosqich moslashishi bilan shahar turmush tarzi, bozor omillari ta'sirida aholining umumiy xulq-atvori ham o'zgaradi, bu esa, o'z navbatida, nikohdan ajralishlar sonining oshishiga olib keladi. Ya'ni aholi ta'lim darajasining ortishi bilan oilaviy ajrimlar darajasi o'rtasida to'g'ridan to'g'ri bog'liqlik saqlanib qolmoqda.



**1-rasm. 25 yosh va undan katta oliy ma'lumotli aholi ulushi, %
(2021-yil)**

3. Urbanizatsiya. Shahar aholisida nikohdan ajralish ko'rsatkichlari qishloq joylariga qaraganda yuqori. Statistika ma'lumotlariga ko'ra, nikohdan ajralganlarning 61,0 foizi shahar joylarida, 39 foizi qishloq joylarida qayd etilgan (3-jadval).

3-jadval

**O'zbekiston Respublikasi shahar va qishloq aholisi soni
dinamikasi hamda nikohdan ajralish koeffitsiyenti**

Yillar	Shahar aholisi (ming kishi)	Shahar aholisi ulushi (%)	Qishloq aholisi (ming kishi)	Qishloq aholisi ulushi (%)	Shaharda nikohdan ajralish koeffitsiyenti (‰)	Qishloqda nikohdan ajralish koeffitsiyenti (‰)
2018	16806,7	50,5	16448,8	49,5	1,2	0,8
2019	17118,4	50,5	16787,4	49,5	1,1	0,7
2020	17510,4	50,6	17048,5	49,4	1,0	0,6
2021	17918,3	50,8	17353,0	49,2	1,4	0,9
2022	18335,7	50,9	17689,2	49,1	1,7	1,1

Manba: jadval O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

3-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 2018–2022-yillarda shahar aholisi ulushi muntazam ortib borib, qishloq aholisiga qaraganda ustunlik qiladi. Bugungi kunda respublikamizda urbanizatsiya darajasi 50,9 foizni tashkil etadi. Tahlil qilinayotgan davrda shaharda nikohdan ajralish koeffitsiyenti qiymati qishloq joylariga qaraganda 2018-yilda – 0,4, 2022-yilda – 0,6 punktga yuqori bo'lgan.

4-jadval

Urbanizatsiya darajasi va nikohdan ajralish koeffitsiyenti

Ko'rsatkichlar	Yillar				
	2018	2019	2020	2021	2022
O'zbekiston Respublikasi					
Urbanizatsiya darajasi, %	50,5	50,6	50,6	50,8	50,9
Nikohdan ajralish koeffitsiyenti, ‰	1,0	0,9	0,8	1,1	1,4
Qoraqalpog'iston Respublikasi					
Urbanizatsiya darajasi, %	49,1	49,0	49,0	49,0	49,0
Nikohdan ajralish koeffitsiyenti, ‰	0,7	0,7	0,5	0,8	1,1
Andijon viloyati					
Urbanizatsiya darajasi, %	52,3	52,2	52,3	52,2	52,2
Nikohdan ajralish koeffitsiyenti, ‰	1,4	1,2	1,0	1,2	1,5
Buxoro viloyati					
Urbanizatsiya darajasi, %	37,0	36,9	36,8	36,7	36,8
Nikohdan ajralish koeffitsiyenti, ‰	0,9	0,9	0,8	1,1	1,3
Jizzax viloyati					
Urbanizatsiya darajasi, %	46,9	46,9	46,8	46,8	46,9
Nikohdan ajralish koeffitsiyenti, ‰	0,8	0,8	0,8	0,9	1,2
Qashqadaryo viloyati					
Urbanizatsiya darajasi, %	43,1	43,0	43,0	42,8	42,9
Nikohdan ajralish koeffitsiyenti, ‰	0,5	0,5	0,6	0,9	1,0
Navoiy viloyati					
Urbanizatsiya darajasi, %	48,8	48,9	48,9	48,9	49,0
Nikohdan ajralish koeffitsiyenti, ‰	1,0	1,0	0,9	1,2	1,4
Namangan viloyati					
Urbanizatsiya darajasi, %	64,6	64,6	64,6	64,8	64,9
Nikohdan ajralish koeffitsiyenti, ‰	0,9	0,9	0,7	1,1	1,5
Samarqand viloyati					
Urbanizatsiya darajasi, %	37,2	37,1	37,0	36,8	36,7
Nikohdan ajralish koeffitsiyenti, ‰	1,0	0,9	0,8	1,0	1,2
Surxondaryo viloyati					
Urbanizatsiya darajasi, %	35,4	36,3	36,2	36,2	36,2
Nikohdan ajralish koeffitsiyenti, ‰	0,7	0,7	0,6	0,8	1,0
Sirdaryo viloyati					
Urbanizatsiya darajasi, %	42,8	42,7	42,6	42,6	43,1
Nikohdan ajralish koeffitsiyenti, ‰	1,4	1,3	1,3	1,6	2,0
Toshkent viloyati					
Urbanizatsiya darajasi, %	49,2	49,2	49,1	49,7	50,0
Nikohdan ajralish koeffitsiyenti, ‰	1,3	1,2	1,0	1,4	1,7
Farg'ona viloyati					
Urbanizatsiya darajasi, %	56,5	56,4	56,3	56,2	56,1
Nikohdan ajralish koeffitsiyenti, ‰	0,8	0,9	0,8	1,1	1,4
Xorazm viloyati					
Urbanizatsiya darajasi, %	33,2	33,2	33,1	33,1	33,1
Nikohdan ajralish koeffitsiyenti, ‰	0,6	0,6	0,6	0,8	1,1
Toshkent shahri					
Urbanizatsiya darajasi, %	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0
Nikohdan ajralish koeffitsiyenti, ‰	1,7	1,8	1,5	2,0	2,0

Manba: jadval O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Shahar joylarida nikohdan ajralish darajasidagi bunday tendensiyaning oilaviy qadriyat yo'nalishlarining o'zgarishi bilan izohlash mumkin. Ishlab chiqarish, madaniy, ta'lim darajasi va turmush tarzining rivojlanishi bilan hayotiy ehtiyojlar va xatti-harakatlar tarkibida o'zgarishlar ro'y beradi.

Tadqiqotda urbanizatsiya darajasi bilan nikohdan ajralish koeffitsiyenti o'rtasida bog'liqlik tahlil qilindi (4-jadval).

Tahlillar urbanizatsiya darajasi yuqori bo'lgan hududlarda nikohdan ajralish koeffitsiyentining qiymati yuqori ekanligini ko'rsatdi. Ya'ni urbanizatsiya darajasi 100 foizni tashkil qiladigan Toshkent shahrida nikohdan ajralish koeffitsiyenti eng yuqori (2,0%).

Sirdaryo viloyatida urbanizatsiya darajasi respublika o'rtacha ko'rsatkichidan past (43,1%). Biroq viloyatda nikohdan ajralish koeffitsiyenti yuqori (2,0%). Buning asosiy sababi viloyatdagi Yangiyer (6,3%), Guliston (5,8%) va Shirin (5,2%) shaharlarida ajralishning yuqori bo'lishi viloyat o'rtacha ko'rsatkichining yuqori bo'lishini ta'minlagan (5-jadval). Xuddi shunday tendensiya Toshkent viloyatida ham kuzatiladi.

5-jadval

Nikohdan ajralish darajasi yuqori bo'lgan shaharlar ro'yxati (2022-yil)

T/r	Tuman va shahar nomi	Nikohdan ajralish koeffitsiyenti, ‰	T/r	Tuman va shahar nomi	Nikohdan ajralish koeffitsiyenti, ‰
1.	Sirg'ali tumani	6,5	12.	Yakkasaroy tumani	4,4
2.	Yangiyer shahri	6,3	13.	Yashnobod tumani	4,4
3.	Guliston shahri	5,8	14.	Chilonzor tumani	4,4
4.	Bektemir tumani	5,6	15.	Yunusobod tumani	4,3
5.	Olmaliq shahri	5,4	16.	Bekobod shahri	4,3
6.	Shirin shahri	5,2	17.	Kattaqo'rg'on shahri	4,3
7.	Qo'qon shahri	4,9	18.	Kogon shahri	4,2
8.	Namangan shahri	4,7	19.	Navoiy shahri	4,2
9.	Chirchiq shahri	4,7	20.	Quvasoy shahri	4,1
10.	Andijon shahri	4,5	21.	Mirzo Ulug'bek tumani	4,1
11.	Buxoro shahri	4,5	22.	Uchtepa tumani	4,1

Manba: jadval O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Respublikaning 208 ta tuman va shaharlari bo'yicha nikohdan ajralish koeffitsiyenti tahlil qilindi va hududlar reytingi tuzildi (5-jadval). Unga ko'ra, nikohdan ajralishning eng yuqori ko'rsatkichlari shahar joylari hissasiga to'g'ri keladi.

Shahar joylarida nikohdan ajralish ko'rsatkichlarining yuqoriligi sababli nikohning mustahkamlik ko'rsatkichi past.

Tadqiqotda nikohning mustahkamlik ko'rsatkichi eng past 20 ta tuman va shaharlar ro'yxati shakllantirildi (6-jadval).

6-jadvaldan ko'rinadiki, Toshkent viloyatining shahar joylarida nikohning mustahkamlik ko'rsatkichi juda past (ro'yxatning birinchi beshtaligini egallagan). Xususan, Quyi Chirchiq tumanining shahar joylarida har 100 ta

tuzilgan nikohning qariyb uchdan ikki qismi (64,5%), Yangiyo'l tumanida – 43,4, Piskent tumanida – 42,7, Ohangaron shahrida – 41,8, Oqqo'rg'on tumanida 40,2 foizi ajrim bilan tugagan.

6-jadval

Har 100 nafar tuzilgan nikohga to'g'ri keladigan ajralishlar soni yuqori bo'lgan tuman (shahar) ro'yxati, shahar joylarida (2022-yil)

T/r	Tuman va shahar nomi	Har 100 nafar tuzilgan nikohga to'g'ri keladigan ajralishlar soni	T/r	Tuman va shahar nomi	Har 100 nafar tuzilgan nikohga to'g'ri keladigan ajralishlar soni
1.	Quyi Chirchiq tumani	64,5	11.	Oqoltin tumani	35,2
2.	Yangiyo'l tumani	43,4	12.	Tomdi tumani	34,8
3.	Piskent tumani	42,7	13.	Toshkent tumani	33,9
4.	Ohangaron shahri	41,8	14.	Chirchiq shahri	33,7
5.	Oqqo'rg'on tumani	40,2	15.	Farg'ona shahri	33,6
6.	Sirg'ali tumani	39,0	16.	Mirzo Ulug'bek tumani	32,2
7.	Sayxunobod tumani	38,6	17.	Sirdaryo tumani	32,0
8.	Qibray tumani	36,9	18.	Yashnobod tumani	31,5
9.	Ulug'nor tumani	36,8	19.	Qo'qon shahri	30,2
10.	Yangiyer shahri	35,4	20.	Ohangaron tumani	30,2

Manba: jadval O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Jadvalda keltirilgan boshqa hududlarning shahar joylarida ham tuzilgan nikohning uchtdan bir qismi ajrim bilan yakunlangan.

Shahar aholisining muayyan qismini qishloqdan ko'chib kelganlar tashkil etadi. Erkaklar shahar hayotiga tezroq moslashadi, shahar xulq-atvor me'yorlarini ayollarga qaraganda tezroq qabul qiladi, sababi qishloq joylaridan ko'chib kelgan ayollarning aksariyati uy bekalari hisoblanadi.

Ayollar ko'proq qishloq turmush tarziga moslashgani bois vaqt o'tishi bilan erlarining oila hayotidan noroziligiga sabab bo'ladi. O'z bilim saviyasini oshirib, shahar turmush tarzini tezda o'zlashtirgan, ishga joylashgan, shahar hayotiga tez moslashgan ayollarda bunday qarama-qarshilik vaqt o'tishi bilan biroz bartaraf qilinadi.

Qishloqda turmush tarzi, urf-odatlar, oilaning bolalarga bo'lgan ehtiyoji shaharlarga qaraganda an'anaviy hisoblanadi. Bu esa qishloq joylarida nikohdan ajralish darajasining shaharga nisbatan past bo'lishini ta'minlaydi.

4. Mehnat migratsiyasi. Respublikamizda mustaqillikka erishgunga qadar migratsiya jarayonlarining intensivligi juda past, aholi o'z qishlog'i, shahri va oilasiga mustahkam bog'langan, turmushida an'anaviy munosabatlarning ta'siri kuchli bo'lgan. Shunga mos ravishda, demografik mayl me'yorlari an'anaviy ravishda kuchli bo'lgani tufayli nikohdan ajralish jarayoni kam kuzatilgan.

Mehnat migratsiyasi migrantlar oilasining (ota-ona, aka-uka, opa-singillar va boshqalar) turmush sharoitini yaxshilash imkonini beradi. Aytish joizki, migrantlarning ba'zilar o'z vatanlarida qonuniy turmush o'rtog'i bo'lsa-da, mehnat qilayotgan o'zga yurtda ikkinchi marta norasmiy oila qurish holatlari

kuzatilmoqda. Buning natijasida o'z vatanidagi qonuniy turmush o'rtog'i bilan nikohdan ajralish holatlari ham yuzaga kelmoqda.

Migrantlarda nikohdan ajralish koeffitsiyentining o'sishi ularda iqtisodiy vaziyatning yaxshilanishi, yangi hayotiy qadriyatlarning o'zlashtirilishi bilan bog'liq bo'lib, bu ularga hayotdan ko'proq erkinlik va qoniqish bag'ishlaydi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, respublikadan tashqariga chetga ishlash uchun ketganlar soni 1,8 mln kishiga teng bo'lib (13-jadval), ular mamlakat aholisining 5,2 foizini, mehnat resurslarining 9,5 foizini, iqtisodiy faol aholining 12,3 foizini, ish bilan band aholining 13,5 foizini tashkil etadi.

Hatto iqtisodiy faol aholining Xorazm viloyatida 20 foizi, Qoraqalpog'iston Respublikasida 19,7 foizi, Andijon viloyatida 19,4 foizi, Samarqand viloyatida 18,5 foizining migratsiya hisobidan bandligi ta'minlangan.

Hududlar kesimida Andijon (7,7%), Xorazm (7,6%) viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasi (7,2%) aholisi tarkibida tashqi mehnat migrantlari ulushi yuqori.

Bugungi kunda mehnat migrantlarining nikohni bekor qilishi alohida muammoga aylanib bormoqda. Erkaklar ishlab yurgan joyida o'ziga boshqa umr yo'ldosh topishi holatlari uchramoqda. Ularning turmush o'rtoqlari uchun esa erkakning uzoq vaqt uyda bo'lmashligi haqiqiy sinov vazifasini o'tamoqda. Ushbu jarayon ham respublikada oila institutining demografik taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

7-jadval

Respublikadan tashqariga chetga ishlashga ketganlar soni, ming kishi

Hududlar	Yillar					2022-yilda 2018-yilga nisbatan o'zgarishi, %
	2018	2019	2020	2021	2022	
O'zbekiston Respublikasi	2 384,8	2 460,7	1 838,2	1 456,8	1 854,7	77,8
Qoraqalpog'iston Respublikasi	144,6	157,4	117,8	109,9	142,1	98,3
Viloyatlar						
Andijon	305,2	299,8	225,5	204,4	251,7	82,5
Buxoro	133,2	155,6	116,9	72,0	91,9	69,0
Jizzax	73,8	81,4	59,7	36,3	48,2	65,3
Qashqadaryo	177,9	212,5	162,1	113,6	146,8	82,5
Navoiy	37,7	40,9	28,1	21,1	26,9	71,4
Namangan	200,7	218,3	164,2	71,3	94,7	47,2
Samarqand	341,2	323,0	241,9	217,4	275,7	80,8
Surxondaryo	163,4	196,8	145,9	85,2	109,6	67,1
Sirdaryo	68,9	76,1	51,8	28,7	39,4	57,2
Toshkent	178,4	122,7	91,9	133,0	168,2	94,3
Farg'ona	283,7	297,4	225,6	150,2	193,5	68,2
Xorazm	154,3	169,8	127,8	119,9	148,5	96,2
Toshkent sh.	121,8	109,0	78,8	93,6	117,2	96,2

Manba: jadval O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

*So‘nggi yillarda
ishchi kuchini
eksport qiluvchi
mamlakatlarda
sms-ajralishlar
ham urfga
aylanmoqda.
Ajralishning
bunday turida
erkaklar chet
elda ishlab
yurib, turmush
o‘rtoqlariga
“taloq” so‘zini
sms-xabar orqali
yozib yuboradi.
Buning natijasida
ayol sud qarorisiz,
odatda himoyasiz
qolib, ota-
onasining uyiga
qaytishga majbur
bo‘ladi.*

So‘nggi yillarda ishchi kuchini eksport qiluvchi mamlakatlarda **sms-ajralishlar** ham urfga aylanmoqda. Ajralishning bunday turida erkaklar chet elda ishlab yurib, turmush o‘rtoqlariga “taloq” so‘zini sms-xabar orqali yozib yuboradi. Buning natijasida ayol sud qarorisiz, odatda himoyasiz qolib, ota-onasining uyiga qaytishga majbur bo‘ladi. Bu borada erkaklarni mas‘uliyatli bo‘lishga chaqirib, ularga ajralishning bunday shakli noqonuniy ekanligini tushuntirish, bunday holat bilan kurashish oila masalalari bilan shug‘ullanuvchi tashkilotlar oldida turgan dolzarb vazifalar sirasiga kiradi.

Aholining mehnatga layoqatli qismi, ayniqsa, yosh erkaklarda mehnat migratsiyasining yuqori darajasi, ularning boshqa mamlakatlarda uzoq muddat mehnat qilishi ular tomonidan shu hududda yangi oila qurilishiga sabab bo‘lmoqda. Mazkur holat oilalar o‘rtasidagi nizolar, oilalarning buzilishi, farzandlar yetimligi va qarovsizligining keng tarqalgan sababi bo‘lib qolmoqda. Shuningdek, migratsiya er-xotin o‘rtasida masofaviy munosabatlarni yuzaga keltirib, to‘liq bo‘lmagan oilalar, beva ayollar sonini oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, tashqi mehnat migratsiyasi nafaqat oila muammolari sonini oshiradi, balki jamiyatning ijtimoiy hayotini ham murakkablashtiradi. Shuning uchun davlatning ijtimoiy siyosatini qayta ko‘rib chiqish va mehnat migratsiyasi muammolarini hal qilishning samarali mexanizmini ishlab chiqish zarur.

Shunday qilib, tashqi mehnat migratsiyasi nikohdan ajralish koeffitsiyentining ortishiga va ularning beqarorligiga sabab bo‘ladi.

5. Aholi daromadlari (ish haqi). Aholi daromadlari nafaqat moddiy ehtiyojlarni qondirish, balki hayot sifatini yaxshilash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi, ya‘ni ta‘lim darajasini oshirish, salomatlikni mustahkamlash, dam olish vaqtini va sifatini oshirish, jamiyatdagi ekologik vaziyatni yaxshilash va boshqalar uchun ishlatiladi. Demak, daromad aholining demografik xavfsizligini ta‘minlovchi muhim omil hisoblanadi.

Aholining ko‘pchilik qismi uchun ish haqi asosiy daromad shakli bo‘lib qolmoqda va so‘nggi yillarda aholining umumiy daromadlarida uning ulushi kamaygani munosabati bilan uning islohoti jamiyatning eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy muammolaridan biri bo‘lib qolmoqda. Sanoat va hududlar bo‘yicha daromadlar va ish haqining haddan tashqari differentsiatsiyasi salbiy oqibatlarining o‘sishiga hamda jamiyatdagi qarama-qarshiliklarning kuchayishiga olib keladi.

Statistik ma‘lumotlarga ko‘ra, so‘nggi yillarda o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori (ish haqiga ustama, mukofot, rag‘batlantirish xususiyatiga ega to‘lovlar, kompensatsiya va ishlanmagan vaqt uchun haq kabi to‘lovlar kiritilgan, shuningdek, uning tarkibida jismoniy shaxslar daromad solig‘i, ijtimoiy sug‘urta va kasaba uyushmasiga to‘lovlar ham mavjud) muntazam ortib bormoqda (8-jadval).

O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko‘rsatkichini respublika hududlari bo‘yicha ko‘radigan bo‘lsak, o‘rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Toshkent shahrida, Navoiy va Toshkent viloyatlarida kuzatiladi. Daromad, ish haqi miqdori ortgan sayin unga bo‘lgan ehtiyoj oshib boradi, bu esa oilalarda iqtisodiy keskinlikni yuzaga keltiradi, natijada ajralish bilan yakunlanishi mumkin.

8-jadval

O'rtacha ish haqi va nikohdan ajralish koeffitsiyenti

Ko'rsatkichlar	Yillar				
	2018	2019	2020	2021	2022
O'zbekiston Respublikasi					
O'rtacha oylik ish haqi, ming so'm	1 822,7	2 324,6	2 673,3	3 214,8	3 892,4
Nikohdan ajralish koeffitsiyenti	1,0	0,9	0,8	1,1	1,4
Qoraqalpog'iston Respublikasi					
O'rtacha oylik ish haqi, ming so'm	1 721,2	2 174,1	2 381,5	2 768,3	3 246,2
Nikohdan ajralish koeffitsiyenti	0,7	0,7	0,5	0,8	1,1
Andijon viloyati					
O'rtacha oylik ish haqi, ming so'm	1 685,5	2 116,8	2 411,2	2 758,7	3 381,8
Nikohdan ajralish koeffitsiyenti	1,4	1,2	1,0	1,2	1,5
Buxoro viloyati					
O'rtacha oylik ish haqi, ming so'm	1 710,1	2 113,4	2 440,4	2 864,9	3 310,0
Nikohdan ajralish koeffitsiyenti	0,9	0,9	0,8	1,1	1,3
Jizzax viloyati					
O'rtacha oylik ish haqi, ming so'm	1 535,9	1 934,2	2 123,7	2 471,2	2 946,4
Nikohdan ajralish koeffitsiyenti	0,8	0,8	0,8	0,9	1,2
Qashqadaryo viloyati					
O'rtacha oylik ish haqi, ming so'm	1 615,5	1 944,4	2 047,9	2 462,1	2 952,6
Nikohdan ajralish koeffitsiyenti	0,5	0,5	0,6	0,9	1,0
Navoiy viloyati					
O'rtacha oylik ish haqi, ming so'm	2 348,4	2 968,8	3 501,1	4 578,3	5 125,3
Nikohdan ajralish koeffitsiyenti	1,0	1,0	0,9	1,2	1,4
Namangan viloyati					
O'rtacha oylik ish haqi, ming so'm	1 429,9	1 873,0	2 066,2	2 425,1	2 924,3
Nikohdan ajralish koeffitsiyenti	0,9	0,9	0,7	1,1	1,5
Samarqand viloyati					
O'rtacha oylik ish haqi, ming so'm	1 444,1	1 909,8	2 117,4	2 418,6	2 944,2
Nikohdan ajralish koeffitsiyenti	1,0	0,9	0,8	1,0	1,2
Surxondaryo viloyati					
O'rtacha oylik ish haqi, ming so'm	1 470,8	1 873,5	2 090,8	2 415,3	2 946,1
Nikohdan ajralish koeffitsiyenti	0,7	0,7	0,6	0,8	1,0
Sirdaryo viloyati					
O'rtacha oylik ish haqi, ming so'm	1 545,8	1 972,2	2 230,4	2 686,7	3 221,6
Nikohdan ajralish koeffitsiyenti	1,4	1,3	1,3	1,6	2,0
Toshkent viloyati					

O'rtacha oylik ish haqi, ming so'm	2 071,2	2 558,1	2 865,2	3 447,6	3 946,9
Nikohdan ajralish koeffitsiyenti	1,3	1,2	1,0	1,4	1,7
Farg'ona viloyati					
O'rtacha oylik ish haqi, ming so'm	1 499,0	1 893,6	2 091,6	2 441,1	2 900,5
Nikohdan ajralish koeffitsiyenti	0,8	0,9	0,8	1,1	1,4
Xorazm viloyati					
O'rtacha oylik ish haqi, ming so'm	1 487,2	1 962,7	2 186,2	2 584,3	3 182,4
Nikohdan ajralish koeffitsiyenti	0,6	0,6	0,6	0,8	1,1
Toshkent shahri					
O'rtacha oylik ish haqi, ming so'm	2 569,6	3 367,0	4 018,3	4 924,9	6 314,4
Nikohdan ajralish koeffitsiyenti	1,7	1,8	1,5	2,0	2,0

Manba: jadval O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

8-jadval nominal ish haqi va nikohdan ajralish darajasi o'rtasida muayyan bir bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi. Nominal ish haqi oshgani sayin nikohdan ajralish darajasi ham ortadi. Albatta, ajralish darajasining oshishiga boshqa omillar ham ta'sir qilishi mumkin, ammo tendensiyaning o'zi bunday munosabatlar mavjudligini ko'rsatadi.

Yakuniy qism.

1. Nikohdan ajralish bilan ijtimoiy-iqtisodiy omillarning o'zaro ta'sirini tahlil qilish jarayonida ular o'rtasida ichki, doimiy takrorlanadigan, sabab-oqibat munosabatlari mavjudligi aniqlandi.

2. Tahlillar ijtimoiy-iqtisodiy omillar bilan oilaviy ajralish darajasi o'rtasida yaqin aloqa mavjudligini ko'rsatdi. Sanoat, ta'lim, urbanizatsiya, tashqi mehnat migratsiyasi, oila daromadlari darajasining o'sishi nikohdan ajralishlar darajasini oshiradi. Bizningcha, ijtimoiy-iqtisodiy omillar oilaviy ajralishning prognoz parametrlarini ishlab chiqishda hisobga olinishi kerak.

3. Nikohdan ajralganlarning har uchtdan bittasi yosh oilalar ekanligini hisobga olib, yosh oilani (ayniqsa, birinchi 5 yil davomida) monitoring qilish jarayonini amalga oshirish. Buning uchun har bir mahalladagi hokim yordamchilari orqali yosh oilalar bandligi ta'minlanishini, uy-joyga ehtiyoji monitoringini olib borish, xotin-qizlar faollari yordamida yosh oilalarning ijtimoiy holidan xabar olish va o'z vaqtida muammolarini hal etishda yordam ko'rsatish.

4. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ayolining ish haqi (daromadi) erinikidan yuqori bo'lsa, hayotini karyera qilishga bag'ishlasa, nikohdan ajralish xavfi sezilarli darajada oshadi. Ayollar daromadining oshishi bilan ro'yxatga olingan nikohlar sonining kamayishi o'rtasida bog'liqlik mavjud.

5. Oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan yosh oilalarda nikohdan ajralish ko'rsatkichi yuqori sur'atda o'sayotganini inobatga olib, oliy o'quv muassasalari 1- va 2-kurslari ish rejasiga "mustahkam oila asoslari" mavzusidagi

darlar kiritish, mazkur darlar doirasida “Oila psixologiyasi”, “Oilaning diniy-axloqiy asoslari”, “Oila iqtisodiyoti”, “Oilaviy huquqiy munosabatlar”, “Reproduktiv salomatlik” hamda “Farzand parvarishi va tarbiyasi” kabi mavzularini o‘qitish.

6. Shahar joylarida nikohdan ajralish ko‘rsatkichlari yuqori ekanligini inobatga olib, psixologik maslahat markazlarini tashkil qilish.

7. Migratsiya jarayonlarida oila butunligini saqlashga erishish. Buning uchun chet elga ishlash maqsadida ketgan va qaytib kelgan yoshlar bilan individual suhbatlar tashkil etish hamda bola huquqlarini ta’minlash majburiyatlarini tushuntirish.

8. Oilaviy nizolarga duch kelganida uning yechimini topish uchun bepul malakali xizmatlarni (psixolog, huquqshunos va diniy ilmga ega bo‘lgan mutaxassislar mavjud onlayn konsultatsiya va 24 soat xizmat ko‘rsatadigan “Qo‘ng‘iroq” (*Call centre*)) tashkil etish.

9. Nikohdan ajralishlarning profilaktikasi uchun maqsadga yo‘naltirilgan kompleks tadbirlarni (psixologik ta’lim, yoshlarning nikoh-oila ustanovkalaridagi muammoli nuqtalar asosida nikoholdi maslahatlar berish, yosh oilalarni psixologik kuzatib borish) tizimli tarzda o‘tkazish. Bu profilaktik ishlar o‘spirinlar, yoshlar va ularning ota-onalariga, shuningdek, yolg‘iz, turmush qurmoqchi bo‘lgan va turmush qurgan yoshlar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, tizimli ravishda amalga oshirilsa, oilalardagi ajralishlarning kamayishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Абдурахмонов Қ.Х., Абдураманов Х.Х. ва бошқалар. *Демография. Дарслик*. – Тошкент: Иқтисодиёт, 2014. – 188 б.
2. Вишневский А.Г. *Избранные демографические труды. Т.1*. – Москва: Наука, 2005. – С. 120.
3. Тышкевич В.П. *Основные направления исследований семейного домохозяйства современной социальной рыночной экономике на примере Германии*. – Москва: МАКС-Пресс, 2009. – с. 211-212.
4. Волков А.Г. *Семья-объект демографии*. – Москва: Мысль, 1986. – С.106.
5. Trent K. & South S.J. (1989). *Structural Determinants of the Divorce Rate: A Cross-Societal Analysis. Journal of Marriage and Family. Vol. 51, No. pp. 391-404.*
6. Thornton A. (2005). *Reading History Sideways: The Fallacy and Enduring Impact of the Developmental Paradigm on Family Life*. – Chicago: University of Chicago Press.
7. Lyngstad T.H. & Jalovaara M. (2010). *A review of the antecedents of union dissolution. Demographic research, vol. 23. pp. 257-292.*
8. Coppola L. and Di Cesare M. (2008). *How fertility and union stability interact in shaping new family patterns in Italy and Spain. Demographic Research 18(4), pp. 117-144.*
9. Svarer M. and Verner M. (2006). *Do Children Stabilize Danish Marriages. Journal of Population Economics 21(2), pp. 395-417.*
10. Jalovaara M. (2003). *The joint effects of marriage partners' socioeconomic positions on the risk of divorce. Demography 40 (1), pp. 67-8.*



Mambetjanov Q.K.,
“Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot instituti
loyiha bosh ilmiy xodimi

O‘ZBEKISTONDA NIKOHDAN AJRASHISH TENDENSIYALARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada nikohdan ajrashishlar soni, har 100 ta tuzilgan nikohga to‘g‘ri keladigan ajrashishlar soni, ajrashgan er-xotinning yosh guruhiga ko‘ra taqsimlanishi, ma‘lumot darajasi va farzandlar soni kabilar tahlil qilingan.

Аннотация. В данной статье анализируется число разводов, число разводов на 100 браков по договоренности, распределение разведенных пар по возрастным группам, уровню образования и количеству детей.

Annotation. This article analyzes the number of divorces, the number of divorces per 100 arranged marriages, share of divorced couples by age group, education level and number of children.

Tayanch so‘zlar: nikohdan ajrashishlar soni, O‘zbekiston Respublikasi hududlari, yosh guruhi, farzandsiz nikohdan ajrashganlar soni.

Ключевые слова: число разводов, регионы Республики Узбекистан, возрастная группа, число разведенных без детей.

Keywords: number of divorces, regions of the Republic of Uzbekistan, age group, number of divorces without children.

Kirish. Nikohdan ajrashishni kamaytirish kambag'allikni qisqartirish, uyoysiz qolishning hamda onalar va bolalar ruhiy tushkunligining oldini olish, aholining ko'payish rejimining buzilishi va hokazolarga, umuman olganda, oila va jamiyatning baxtli hayot kechirishi uchun xizmat qiladi.

Innovatsion rivojlanish sharoitida oilalar juda tez o'zgaradi, iqtisodiy va axloqiy omillarning oila barqarorligiga ta'siri kuchaymoqda, oilalarning yangi shakllari, jamiyatda oilalarning barqarorligi va parchalanishining yangi motivlari va omillari paydo bo'lmoqda.

O'zbekiston Respublikasida nikohdan ajrashishning salbiy ijtimoiy-demografik tendensiyalari demografik o'tishning oraliq bosqichida bo'lgan oilalarning ajrashishini o'rganishda yangi iqtisodiy va demografik yondashuvni talab qiladi.

Ajrashish – bu murakkab iqtisodiy, ijtimoiy, demografik, huquqiy jarayon bo'lib, u omilli tahlil nuqtayi nazaridan kam o'rganilgan.

Mazkur tadqiqotda quyidagi gipoteza ilgari surilgan: taraqqiyotning ijtimoiy-iqtisodiy omillari bilan oilaviy ajrashish darajasi o'rtasida bog'liqlik mavjud bo'lib, buni oilaviy ajrashish tendensiyasi qonuni, deb atash mumkin.

Bu gipoteza jamiyat rivojlangani sayin (iqtisodiyot, fan, madaniyat, urfodatlar, an'analar, oilalar hayotiga yangi hayotiy qadriyatlarining kirib kelishi, jinslar o'rtasidagi tenglik, oila a'zolari o'rtasidagi mustaqillik) er-xotindan oilaviy hayotning yangi standartlari talab qilinadi. An'anaviy oilaviy hayot standartlari bilan rivojlanayotgan yangi oilaviy hayot standartlari o'rtasida qarama-qarshilik paydo bo'ladi va uning yechimi oilaning faoliyatini yangi asosda saqlab qolish imkonini beradi. Ammo barcha oilalar ham buni uddalay olmaydi, shuning uchun oilaning ajrashishi rivojlana boshlaydi.

Maqsad va uni asoslash. Nikohni ro'yxatga olish kabi ajrashishni rasmiylashtirish ham davlat nazorati ostida bo'ladi. Vaqt o'tishi bilan qayd etilgan nikohlarning bir qismi er yoki xotinning vafoti tufayli, yana bir qismi esa turli sabablarga asosida o'z xohishiga ko'ra bekor qilinadi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, so'nggi yillarda respublikamizda nikohdan ajrashishlar soni keskin ortib bormoqda (1-jadval).

1-jadval

O'zbekiston Respublikasi hududlarida nikohdan ajrashishlar soni* (kishi hisobida)

Hududlar	Y i l l a r					2022-yilda 2018-yilga nisbatan o'zgarishi	
	2018	2019	2020	2021	2022	+, -	%
O'zbekiston Respublikasi	32326	31389	28233	39349	48734	16408	150,8
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1344	1243	1028	1467	2067	723	153,8
<i>viloyatlar:</i>							

O'zbekiston Respublikasida nikohdan ajrashishning salbiy ijtimoiy-demografik tendensiyalari demografik o'tishning oraliq bosqichida bo'lgan oilalarning ajrashishini o'rganishda yangi iqtisodiy va demografik yondashuvni talab qiladi.